

JINOIY JAVOBGARLIKDAN OZOD QILISH ASOSLARI: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA TAHLILI

Muhammadjonova Gulasal Muzaffar qizi

Namangan davlat universiteti

Yuridik fakulteti 2-bosqich talabasi

muhammadjonovago07@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada jinoiy javobgarlikdan ozod qilish institutining huquqiy mohiyati, uning asoslari hamda amaliy qo'llanilish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligida nazarda tutilgan javobgarlikdan ozod qilish asoslari xorijiy davlatlar tajribasi bilan qiyosiy-huquqiy jihatdan o'rganilgan. Maqolada ushbu institutni takomillashtirishga oid ilmiy taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar. Jinoiy javobgarlik, javobgarlikdan ozod qilish, yarashuv institute, amnistiya, pushaymon bo'lish, jinoyat huquqi, xorijiy tajriba, insonparvarlik prinsipi.

Jamiyatning rivojlanishi va barqaror yashashi uchun muayyan tartib-qoidalar, ya'ni huquq normalari ishlab chiqiladi. Ushbu normalar har bir fuqaroning xulq-atvorini tartibga soladi, ularning huquq va majburiyatlarini belgilaydi. Ammo hayotda barcha insonlar bu qoidalarga to'liq rioya etavermaydi. Natijada jamiyatda turli xil huquqbuzarliklar sodir bo'ladi. Ana shunday holatlarda davlat tomonidan javobgarlik choralari qo'llanilishi zarur bo'ladi. Hans Kelsen ta'kidlaganidek, "Huquq – bu majburiyatlar tizimi, va har bir majburiyat ortida javobgarlik yotadi". Ya'ni, huquq buzilgan joyda albatta javobgarlik mexanizmi ishga tushadi. Bu jarayon huquqiy javobgarlik instituti orqali amalga oshiriladi.

Jinoiy javobgarlik tushunchasi O'zbekiston Respublikasining 1994-yil 22-sentabrda qabul qilingan Jinoyat Kodeksining 16-moddasida "Jinoyat uchun javobgarlik va uning asoslari" keltirilgan. Unga ko'ra:

"Jinoyat uchun javobgarlik – jinoyat sodir etishda aybdor bo'lgan shaxsga nisbatan sud tomonidan hukm qilish, jazo yoki boshqa huquqiy ta'sir chorasi qo'llanilishida ifodalanadigan jinoyat sodir etishning huquqiy oqibatidir.



Ushbu Kodeksda nazarda tutilgan jinoyat tarkibining barcha alomatlari mavjud bo'lgan qilmishni sodir etish javobgarlikka tortish uchun asos bo'ladi".

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi "Javobgarlikdan va jazodan ozod qilish" deb nomlanuvchi V bo'limi, "Javobgarlikdan ozod qilishning turlari" XII bobi 64-68-moddalarida jinoiy javobgarlikdan ozod qilish asoslari va shartlari belgilab qo'yilgan. Unga ko'ra: "Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish vakolatli davlat organining sudlov yoki ayblovni bekor qilish, shuningdek, jinoyat sodir etishda aybdor bo'lgan shaxsga nisbatan davlat majburlov chorasini qo'llashni bekor qilish haqidagi aktidir".

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksiga ko'ra, javobgarlikdan ozod qilishning bir necha asoslari mavjud. Ular quyidagilardan iborat:

Birinchidan, javobgarlikka tortish muddatining o'tib ketganligi munosabati bilan jinoyat uchun javobgarlikdan ozod qilish. "Agar jinoyat sodir etilgan kundan boshlab quyidagi muddatlar:

- a) ijtimoiy xavfi kata bo'lmagan jinoyat sodir etilgan kundan boshlab – ikki yil;
- b) uncha og'ir bo'lmagan jinoyat sodir etilgan kundan boshlab – to'rt yil;
- c) og'ir jinoyat sodir etilgan kundan boshlab – sakkiz yil;
- d) o'ta og'ir jinoyat sodir etilgan kundan boshlab – o'n to'rt yil o'tgan bo'lsa, shaxs javobgarlikdan ozod etiladi".

Qonunda belgilangan muddat ichida shaxs javobgarlikka tortilmasa, u holda uni keyinchalik javobgarlikka tortish mumkin emas. Bu norma huquqiy aniqlik va barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Ishni tergov qilish yoki sudda ko'rish vaqtida sharoit o'zgarganligi tufayli jinoyat sodir etgan shaxs ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotgan deb topilsa, javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin".

Ikkinchidan, aybdor o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish. "Ijtimoiy xavfi kata bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyatni birinchi marta sodir etgan shaxs, agar u aybini bo'yniga olish to'g'risida arz qilgan, chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan, jinoyatni9ng ochilishiga faol yordam bergan va keltirilgan zararni bartaraf qilgan bo'lsa, javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin".

Uchinchidan, yarashilganlik munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilish. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi 66 1-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etgan shaxs, agar u o'z aybiga iqror bo'lsa,



jabrlanuvchi bilan yarashsa va yetkazilgan zararni bartaraf etsa, jinoiy javobgarlikdan ozod etilishi mumkin.

“Og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatlarni sodir etganlik uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxslar yarashilganligi munosabati bilan jinoiy javobgarlikdan ozod qilinmaydi”.

To'rtinchidan, kasallik tufayli javobgarlikdan ozod qilish. “Agar jinoyat sodir etgan shaxsda hukm chiqarilguniga qadar o'z harakatlarining ahamiyatini anglay olmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan tarzda ruhiy holatning buzilishi yuzaga kelgan bo'lsa, u javobgarlikdan ozod qilinadi.

Bunday shaxsga nisbatan sud tomonidan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanilishi mumkin.

Bunday shaxs ushbu Kodeksning 64-moddasida nazarda tutilgan muddatlar o'tmasdan tuzalsa, javobgarlikka tortiladi. Bunday holda javobgarlikka tortish muddatlari sud tomonidan tibbiy yo'sindagi majburlov chorasini qo'llanilgan kundan hisoblanadi”.

Beshinchidan, amnistiya akti asosida javobgarlikdan ozod qilish. “Jinoyat sodir etgan shaxs amnistiya akti asosida javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin”. Amnistiya jinoyat sodir etgan, shuningdek, jazo o'tayotgan shaxslarga nisbatan insonparvarlik akti bo'lib, amnistiya to'g'risidagi qaror O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimnomasiga asosan qabul qilinadi. Amnistiya jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan jinoyat-huquqiy ta'sir choralari qo'llanilmagan holda ularga tuzalish imkonini berish yoxud bu choralar qo'llanilgan shaxslarning ahvolini yengillashtirish maqsadida e'lon qilinadi.

Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish instituti jahonning ko'plab rivojlangan davlatlari qonunchiligida o'ziga xos moddiy va protsessual xususiyatlarga ega. Xorijiy tajribani o'rganish milliy qonunchilikni takomillashtirish va jinoiy ta'sir choralari optimallashtirish imkonini beradi. Zamonaviy dunyoda jinoyat-huquqiy siyosatining "dekriminalizatsiya" va "depenalizatsiya" sari yo'naltirilishi ko'plab G'arb davlatlarida javobgarlikdan ozod qilishning yangi, muqobil shakllari yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

Kontinental (roman-german) huquq tizimiga mansub davlatlar, xususan, Germaniya va Fransiya tajribasida javobgarlikdan ozod qilish "maqsadga muvofiqlik" prinsipi bilan chambarchas bog'liq. Germaniya Jinoyat-protsessual kodeksiga ko'ra, prokuratura kichik jinoyatlar bo'yicha, agar shaxsning aybi uncha katta bo'lmasa va jinoiy ta'rifni davom ettirishdan



ijtimoiy manfaat mavjud bo'lmasa, ishni sudgacha tugatish huquqiga ega. Germaniya tajribasining o'ziga xosligi shundaki, javobgarlikdan ozod qilish ko'pincha ma'lum majburiyatlar (masalan, xayriya tashkilotiga pul o'tkazish yoki jamoat ishlari) evaziga amalga oshiriladi. Bu mexanizm davlat xarajatlarini tejash va shaxsni qamoqxonaga yubormasdan turib ijtimoiy jazolash imkonini beradi.

Anglosakson (umumiy huquq) tizimidagi davlatlarda, ayniqsa AQSH va Buyuk Britaniyada javobgarlikdan ozod qilishning o'ziga xos shakli sifatida "ayblov bo'yicha kelishuv" (plea bargaining) instituti namoyon bo'ladi. Garchi bu tizim shaxsni javobgarlikdan to'liq ozod qilmasa-da, uning doirasida qo'llaniladigan "diversiya" (diversion) dasturlari diqqatga sazovordir. Diversiya dasturlariga ko'ra, birinchi marta jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan jinoiy ish to'xtatiladi va unga ma'lum bir sinov muddati belgilanadi. Agar shaxs ushbu davr ichida qayta jinoyat sodir etmasa va belgilangan reabilitatsiya kurslarini o'tasa, uning ishi butunlay tugatiladi va shaxs sudlanmagan hisoblanadi.

Fransiya jinoyat huquqida esa javobgarlikdan ozod qilishning "jinoiy vositachilik" (mediation pénale) shakli keng qo'llaniladi. Bu tizim bizning yarashuv institutimizga o'xshab ketsa-da, unda vositachining (mediatorning) roli ancha yuqori. Fransiya amaliyotida prokuror ishni sudga yuborishdan oldin tomonlarga mediator yordamida kelishishni taklif qiladi. Agar tomonlar o'zaro manfaatli kelishuvga erishsa va zarar qoplansa, prokuror jinoiy ta'qibni to'xtatadi. Bu esa huquqiy nizoning jamiyat ichida, sud aralashuvisiz hal etilishiga xizmat qiladi.

Skandinaviya davlatlari (Shvetsiya, Norvegiya) tajribasida javobgarlikdan ozod qilish ko'proq "tiklovchi odil sudlov" (restorative justice) g'oyasiga asoslanadi. Bu yerda asosiy e'tibor jazolashga emas, balki jinoyat natijasida buzilgan ijtimoiy munosabatlarni tiklashga qaratiladi. Masalan, Norvegiyada voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar bo'yicha javobgarlikdan ozod qilish juda keng qo'llaniladi va bu jarayonda shaxsning oilasi, mahallasi hamda psixologlar faol ishtirok etadi.

Xorijiy davlatlar tajribasini tahlil qilish natijasida shuni aytish mumkinki, ko'plab mamlakatlarda javobgarlikdan ozod qilish shunchaki "kechirim" emas, balki shaxsga nisbatan yuklatilgan ma'lum bir ijtimoiy foydali majburiyatlarning bajarilishi evaziga beriladigan imkoniyatdir. Ko'pgina davlatlarda ushbu institutning qo'llanilishi sudlar yuklamasini 30-40 foizgacha kamaytirishga yordam berganligi statistik ma'lumotlarda o'z aksini topgan.



Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, xorijiy davlatlar tajribasidagi javobgarlikdan ozod qilishning protsessual shakllari, ayniqsa diversiya dasturlari va mediatsiya institutining rivojlanganligi milliy qonunchiligimiz uchun namuna bo'lishi mumkin. O'zbekistonda ham yarashuv institutini yanada kengaytirish va iqtisodiy bo'lmagan jinoyatlar bo'yicha ham zararni qoplash evaziga javobgarlikdan ozod qilishning yangi mexanizmlarini joriy etish sud-huquq tizimi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi (2024-yilgi o'zgarishlar va qo'shimchalar bilan). – O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi (lex.uz).
3. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2024-y.
4. Rustambayev M.H. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat huquqi kursi. Umumiy qism. 1-tom. Darslik. – Toshkent: Complex Print, 2021-y.
5. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.

